



**QO'RG'ONTEPA TUMANI: TABIATI,
AHOLISI VA XO'JALIGI**

Egamberdiyeva Matluba Mamanazarovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, geografiya fanlari nomzodi. Tel:94 600 04 40. E-mail: egamberdiyeva_m@nuu.uz

Maxamadjonova Shoxidaxon Abduraxmon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti magistranti
Tel:90 758-28-08 E-mail: shoxida_@mail.ru

Annotasiya: maqolada Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani tabiati, aholisi va xo'jaligiga umumiy tavsif berilgan. Asosiy e'tibor tuman tabiiy sharoitu va resurslari, aholi soni va joylashuvi, aholi zichligi, aholi takror barpo bo'lishi shuningdek, iqtisodiyotining tarmoqlar tarkibigaru o'zgarishlarga qaratilgan.

Kalit so'zlar: tuman, iqlim, tabiiy sharoit, resurslar, aholi, sanoat, qishloq xo'jaligi.

**КУРГАНТЕПИНСКИЙ РАЙОН: ПРИРОДА, НАСЕЛЕНИЕ И
ХОЗЯЙСТВО**

Аннотация: В статье дана общая характеристика природы, населения и хозяйства Курган-Тепинского района Андижанской области. Основное внимание уделено природным условиям и ресурсам района, численности и размещению населения, плотности населения, воспроизводству населения а также отраслевой структуре экономики.

Ключевые слова: район, климат, природные условия, ресурсы, население, промышленность, сельское хозяйство.

KURGONTEPA DISTRICT: NATURE, POPULATION, AND ECONOMY

Abstract: The article provides a general overview of the nature, population, and economy of Kurgontepa District in Andijan Region. The main focus is on the district's natural conditions and resources, population size and distribution, population density,





population reproduction as well as the sectoral structure of the economy and its changes.

Keywords: district, climate, natural conditions, resources, population, industry, agriculture.

Hududiy tadqiqotlar zamonaviy geografiya va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, alohida hududlarning tabiiy sharoiti, demografik xususiyatlari hamda xo‘jalik faoliyatining o‘zaro bog‘liqligini kompleks tarzda o‘rganish hududiy rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘z navbatida hududlardan oqilona foydalanish, ularning iqtisodiy salohiyatini oshirish hamda barqaror rivojlanishni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Qo‘rg‘ontepa tumani Andijon viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muhim hududlaridan biri bo‘lib, uning rivojlanishi tabiiy-geografik sharoitlari, resurslar bazasi va demografik omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Tumanning iqlimiy xususiyatlari, yer va suv resurslari, shuningdek, aholi zichligi va joylashuvi hududda qishloq xo‘jaligi hamda sanoat tarmoqlarining shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, demografik jarayonlar, jumladan, aholi sonining o‘sishi, tabiiy ko‘payish va migratsiya holatlari hududiy rivojlanishga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Qo‘rg‘ontepa tumani Andijon viloyatining shimoli-sharqiy qismida joylashgan strategik ahamiyatga ega ma‘muriy-hududiy birliklardan biri hisoblanadi. U 1926-yil 29-sentabrda tashkil topgan bo‘lib, bugungi kunda viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy makonida alohida o‘rin tutadi. Tuman hududi shimoli-g‘arb tomondan Jalolquduq, janubi-g‘arbda Xo‘jaobod tumanlari bilan tutashgan, sharqiy va shimoliy chegaralari esa Qirg‘iziston Respublikasi bilan tutashib, uning transchegaraviy hudud sifatidagi ahamiyatini oshiradi. Umumiy maydoni qariyb 470 km² ni tashkil etadi.

Ma‘muriy-hududiy tuzilish jihatidan tuman Qo‘rg‘ontepa va Qorasuv shaharlari, Dardoq hamda Sultonobod shaharchalari, shuningdek, bir nechta qishloq fuqarolar yig‘inlari mavjud bo‘lib, ular hududiy boshqaruv tizimining asosiy bo‘g‘inlarini tashkil etadi. Ma‘muriy markaz sifatida Qo‘rg‘ontepa shahri xizmat qiladi.

Tabiiy-geografik jihatdan tuman Farg‘ona vodiysining tog‘ oldi hududlarida, Farg‘ona va Olay tog‘ tizmalari etaklarida joylashgan. Hudud relyefi asosan qiya tekisliklardan iborat bo‘lib, sharqdan g‘arbgacha tomon pasayib borishi bilan





xarakterlanadi. Bu esa yer resurslaridan foydalanish va aholi joylashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sharqiy qismda balandlik nisbatan yuqori (taxminan 1000 metr), g'arbga tomon esa 500 metr atrofida pasayadi. Hududda Toshohur va Suzoq kabi adir landshaftlari ham uchrab, ular geomorfologik xilma-xillikni ta'minlaydi.

Iqlim sharoiti keskin kontinental bo'lib, yoz oylarida yuqori harorat va qurg'oqchilik, qish faslida esa nisbatan sovuq ob-havo kuzatiladi. O'rtacha harorat yanvar oyida $-2...-3^{\circ}\text{C}$, iyulda esa $26-27^{\circ}\text{C}$ atrofida bo'ladi. Ekstremal harorat ko'rsatkichlari -24°C dan $+40^{\circ}\text{C}$ gacha yetishi mumkin. Yillik yog'in miqdori 250–400 mm ni tashkil etib, asosan qish va bahor fasllarida yog'adi. Vegetatsiya davrining nisbatan uzunligi (taxminan 220 kun) hududda qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qulay agroiklimiy sharoit yaratadi.

Tumanning gidrografik tarmog'i Qoradaryo va uning irmoqlari bilan bog'liq bo'lib, ular hududning asosiy suv manbalarini tashkil etadi. Shahrixonsoy va Qorag'unon ariqlari ichki sug'orish tizimida muhim rol o'ynaydi, Savay kanali esa janubiy hududlarni suv bilan ta'minlashda alohida ahamiyatga ega. Mazkur suv resurslari dehqonchilikning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Aholisi. Ma'lumki, respublika hududlarida qishloq tumanlarining tabiiy-geografik va xo'jalik sharoitlari o'zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Mazkur omillar hududlarning demografik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatib, aholi soni, zichligi, hududiy joylashuvi hamda takror barpo bo'lish jarayonlarida sezilarli farqlarni yuzaga keltiradi. Shu bois har bir hududning demografik holatini o'rganishda uning tabiiy va iqtisodiy sharoitlarini kompleks tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo'rg'ontepa tumani misolida ham ushbu qonuniyatlar yaqqol namoyon bo'ladi. Hududda aholi sonining izchil o'sib borishi demografik jarayonlarning barqaror ijobiy dinamikaga ega ekanligini ko'rsatadi. Tahlil etilayotgan davrda tuman aholisi 234,3 ming kishini tashkil etib, bu ko'rsatkich mehnat resurslari salohiyatining ortib borayotganidan dalolat beradi.

Aholi sonining ortishi o'z navbatida ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish zaruratini kuchaytiradi. Xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash va xizmat ko'rsatish sohalarini kengaytirish hamda ularning sifatini oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yuzaga keladi. Shu jihatdan, Qo'rg'ontepa tumanining demografik





rivojlanishi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni takomillashtirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi (1-jadval).

Ma’lumki, Andijon viloyati respublika miqyosida aholi zichligi eng yuqori bo‘lgan hududlardan biri hisoblanadi. Viloyatda aholi zichligining 804,9 kishi/km² ni tashkil etishi, avvalo, uning qulay tabiiy-geografik sharoiti, sug‘orma dehqonchilikning keng rivojlanganligi hamda uzoq tarixiy davr mobaynida shakllangan zich aholi joylashuvi bilan izohlanadi. Bunday sharoitlar, odatda, agrar-iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlarda aholi konsentratsiyasining ortishiga olib keladi.


Qo‘rg‘ontepa tumani mazkur hududiy tizimda o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Unda aholi zichligi 498,5 kishi/km² ni tashkil etib, bu ko‘rsatkich viloyat o‘rtacha darajasidan pastroq bo‘lsa-da, respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan sezilarli darajada yuqoridir. Mazkur holat tumanning yer resurslari nisbatan kengligi, aholi joylashuvining hududiy jihatdan nisbatan tarqoqroq xarakterga egaligi hamda urbanizatsiya darajasining o‘rtacha ekanligi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, tumanda qishloq xo‘jaligining ustuvor rivojlanishi, sug‘orma dehqonchilikning mavjudligi va demografik o‘shishning ijobiy dinamikasi aholi zichligining kelgusida yanada ortishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Demak, Qo‘rg‘ontepa tumanining demografik holati hududning tabiiy-resurs salohiyati va xo‘jalik ixtisoslashuvi bilan uzviy bog‘liq holda shakllanmoqda.

1-jadval

Andijon viloyati aholisining hududiy tarkibi (2025-yil 1- yanvar holati, ming kishi)

Tumanlar	2010-yil	2026-yil	O‘shish surati %da	Aholi zichligi (kishi hisobida)
Andijon viloyati	2549,1	3461	135,7	804,9
Andijon shahri	373,8	492,4	131,7	7034,3
Xonobod shahri	37,4	46,5	124,3	2325,0
Oltinko‘l tumani	142,7	194,3	136,1	925,2
Andijon tumani	210,9	292,6	138,7	790,8
Baliqchi tumani	158,4	220,2	139,0	647,6
Bo‘ston tumani	57,1	79,7	139,5	398,5





Buloqbooshi tumani	115,1	156	135,5	866,7
Jalaquduq tumani	153,1	202,1	132,0	546,2
Izboskan tumani	195,1	260,3	133,4	929,6
Ulug'nor tumani	49,5	64,3	129,8	153,1
Qo'rg'ontepa tumani	173	234,3	135,4	498,5
Asaka tumani	259,1	362,1	139,7	1341,1
Marxamat tumani	139,2	189,9	136,4	593,4
Shaxrixon tumani	239,1	331,3	138,5	1142,4
Paxtaobod tumani	155,1	212,7	137,1	818,1
Xo'jaobod tumani	90,5	122,3	135,2	531,7

Manba: www.andstat.uz ma'lumotlari

Tumanning yana bir o'ziga xos jihati esa urbanizatsiya ko'rsatkichlari viloyat ko'rsatkichidan yuqori ya'ni 42,8% dan iborat ekanida. Ya'ni tumanda mavjud 4 ta shahar manzilgochlari aholisi mavjud aholini deyarli 2/3 qismini yashash manzili sanaladi.

Tahlil etilayotgan tumanda 2024-yilda tug'ilish koeffitsienti 25,1, o'lim koeffitsienti 5,1 ‰o teng bo'lgan. Umuman olganda, Qo'rg'ontepa tumanida aholining tabiiy o'sishi 2024-yilda 20 ‰o teng bo'lgan.

2024-yil 1-yanvar holatiga tuman aholisi jinsiy tarkibida ayollar ulushi 49,6 foiz, erkaklar ulushi 50,4 foizni tashkil qildi. Demak, tumanda ayollar soni erkaklar soniga nisbatan biroz kamroq ekanligini kuzatishimiz mumkin. Tuman aholisining milliy tarkibida o'zbeklar ulushi 88,8 foizga teng bo'lgan holda keyingi o'rinda qirg'izlar ulushi yuqori holatni qayd etgan (5.5 foiz)

-jadval

Aholining milliy tarkibi

№	Millatlar nomi	Jami aholi soni (kishi)	Jamiga nisbatan ulushi (%)
1.	O'zbeklar	200 746	88,8
2.	Ruslar	320	0,1
3.	Tatarlar	376	0,2
4.	Qirg'izlar	12 503	5,5





5.	Tojiklar	3 795	1,7
6.	Qozoqlar	224	0,1
7.	Turkmanlar	1	0,0
8.	Boshqa millatlar	8 110	3,6

Xo'jaligi. Tuman iqtisodiyoti agrar-industrial yo'nalishga ega. Hudud iqtisodiyoti ko'p tarmoqli tizim sifatida shakllangan bo'lib, unda sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalari o'zaro integratsiyalashgan holda rivojlanmoqda. Binobarin, tumanning iqtisodiy tuzilmasida mahalliy xomashyoni qayta ishlashga yo'naltirilgan sanoat tarmoqlari muhim o'rin tutadi. Xususan, paxta tozalash, don mahsulotlarini qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish hamda to'qimachilik sanoati tarmoq ixtisoslashuvining asosini tashkil etadi. Tumanda 2024-yilda 590,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan bo'lib, viloyat yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi atigi 3,9 % demakdir (2-jadval).

2-jadval

Qo'rg'ontepa tumanning Andijon viloyati bilan solishtirma asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (2024- yil)

	Hajmi mlrd. so'm	Qo'rg'ontepa tumanning Andijon viloyatida tutgan ulushi, %da
Sanoat mahsuloti	590,1	3,9
Iste'mol tovarlari	598,0	3,8
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1234	9,7
Asosiy kapitalga investitsiyalar	1414,1	16,4
Qurilish ishlari	232,2	4,2
Xizmatlar, jami	250,7	2,3
Tashqi savdo balansi	711,2	5,8
Ekspart	239,1	4,5





Import	472,1	6,8
--------	-------	-----

Manba: www.anstat.uz ma'lumotlari

Tumanda "Kxanteks group" MCHJ paxta to'qimachilik klaster korxonasi, "Qo'rg'ontepa don mahsulotlari" AJ va boshqa ko'plab sanoat korxonalari faoliyat yuritadi. Bu esa tumanning agrar yo'nalishdagi resurs salohiyatidan samarali foydalanilayotganini ko'rsatadi.

Sanoat ishlab chiqarishida yirik va o'rta korxonalar bilan bir qatorda kichik biznes subyektlari ham faol ishtirok etmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar va qo'shma korxonalar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda ichki bozorni iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish infratuzilmasining rivojlanishi savdo tarmoqlari, transport xizmatlari va maishiy servis tizimining kengayishi hudud iqtisodiyotining diversifikatsiyalashayotganidan dalolat beradi.

Qishloq xo'jaligi tumanning yetakchi iqtisodiyot yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Paxtachilik va g'allachilik asosiy ixtisoslashgan tarmoqlar sifatida shakllangan bo'lsa-da, sabzavotchilik, polizchilik, bog'dorchilik va uzumchilik qo'shimcha, ammo muhim ahamiyatga ega yo'nalishlardir. Fermer va dehqon xo'jaliklari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy subyektlari sifatida mahsulot yetishtirish hajmini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Binobarin tumanda sabzavotchilik yo'nalishida 271 ta, bog'dorchilik yo'nalishida 243 ta va paxta-g'alla yo'nalishida 172 ta fermer xo'jaliklari faoliyat yuritadi. Ushbu tarmoqlarning rivojlanishi hududning agroiklimiy sharoiti va suv resurslari bilan bevosita bog'liq.

Chorvachilik sohasi ham agrar sektorning ajralmas qismi sifatida rivojlanib, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Qoramolchilik, qo'y-echkichilik va parrandachilik tarmoqlari mahsulot yetishtirish bilan bir qatorda, qayta ishlash sanoati uchun ham xomashyo bazasini yaratadi.

Ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi hududning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport tizimlarining mavjudligi hamda ularning hudud bo'ylab nisbatan teng taqsimlanganligi aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Transport-kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanganligi esa tumanning boshqa hududlar bilan





iqtisodiy aloqalarini mustahkamlab, ichki va tashqi bozorlar bilan integratsiyani kuchaytiradi.

Umuman olganda, Qo'rg'ontepa tumani xo'jaligi tabiiy resurslar, mehnat salohiyati va bozor munosabatlari ta'sirida shakllangan bo'lib, hozirgi bosqichda iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvi va barqaror rivojlanish tendensiyalari bilan tavsiflanadi.

Umuman olganda, tahlil etilayotgan tuman sanoat tarmoqlar tarkibida oziq-ovqat va yengil sanoat to'liq ustunlikka ega. Birgina oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy tuman sanoatining deyarli yarmini tashkil qiladi. Tumanda 2023-yilda jami sanoat korxonalarini soni 443 tani tashkil etgan bo'lib, barchasi kichik korxonalar va mikrofirmalardan iborat. Shu jumladan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar 16 taga teng.

2024-yilda tumanda 1234 mlrd. so'mlik qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirilgan bo'lib, jami viloyatning mazkur turdagi mahsulotining 9,7% ta'minlagan. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari asosiy qismi dehqonchilik mahsulotlariga to'g'ri keladi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

Tahlilardan ko'rish mumkinki, tuman jami xizmatlar tarkibida asosiy o'rinni savdo hamda transport xizmati egallagan. Bu ikkala xizmat turi barcha xizmatning asosiy qismini tashkil etadi. Aholining yashash sharoiti ko'p jihatdan ijtimoiy infratuzilma shahobchalarining qay darajada ta'minlanganligi bilan belgilanadi. Bu jihatdan, ayniqsa, aholining toza ichimlik suvi, gaz va elektr energiya bilan ta'minlanishi katta mazmun kasb etadi. 2024-yil holatiga tuman aholisining bor-yo'g'i 44% markazlashgan toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan. Bu borada viloyatning boshqa ma'muriy birliklari bilan taqqoslaganda eng so'nggi o'rinlarda turadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, viloyatning boshqa tumanlariga nisbatan Qo'rg'ontepa tumanining mineral-xomashyo bazasi yetarlicha rivojlanmagan bo'lib, hududda yirik sanoat ahamiyatiga ega foydali qazilma konlarining mavjud emasligi kuzatiladi. Mazkur holat tumanda sanoat tarmoqlarining shakllanishi va keng ko'lamda diversifikatsiyalashuv jarayonlarini ma'lum darajada cheklab qo'ygan.





Shu bilan birga, tumanning agroiklimiy resurslari yuqori salohiyatga ega. Xususan, yil davomida quyoshli kunlarning ko‘pligi, vegetatsiya davrining uzoqligi hamda iqlim sharoitining nisbatan barqarorligi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadi. Bu esa hududning agrar yo‘nalishda ixtisoslashuviga tabiiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tarixan shakllangan xo‘jalik tizimida qishloq xo‘jaligining ustuvorligi natijasida tumanda katta hajmda xomashyo yetishtiriladi. Shu omil asosida sanoat tarmoqlari ham asosan qayta ishlash yo‘nalishida rivojlangan bo‘lib, ayniqsa oziq-ovqat va yengil sanoat korxonalarini yetakchi o‘rin egallaydi. Bunday tarkibiy tuzilma hudud iqtisodiyotining resurslarga moslashgan holda shakllanganini va uning agrar-industrial xususiyat kasb etganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-tom Toshkent. O‘zbekiston, 2017.
2. Soliev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O‘zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. T.: “Mumtoz so‘z”. 2010
3. Soliyev A.S. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. (Tanlangan asarlar). Monografiya.- Toshkent, 2013. 42-45 b.
4. Mamajonov M., va boshqalar. Andijon geografiyasi. — Andijon., “Hayot nashriyoti”, 2020. – 281 bet.
5. Wikipedia. https://en.wikipedia.org/wiki/Andijan_Region.
6. “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”, 2000.
7. Tuman pasporti ma’lumotlari.-2000, 2020, 2024.

